

“YUSUF VA ZULAYHO” TURKUMIDAGI DOSTONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turdiboyeva Husnida
FarDU Filologiya fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada 150 dan ortiq namunasi mavjud bo‘lgan “Yusuf va Zulayho” dostonining diniy manbalarda qanday shakllarda uchrashi, ijodkorlar tomonidan qanday variantlarda yoritilgani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Yusuf, Zulayho, Yaqub, Qur’oni Karim, poklik, sabr, Jomiy, Durbek, Injil, Tavrot, Alisher Navoiy, Rabg‘uziy, “Qisasi Rabg‘uziy”.

“Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlar Sharq adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Bu asar sayyor syujetli asarlar sirasiga kirib, VII asrda islom dinining kirib kelishi bilan turkey xalqlar adabiyotidan o‘rin ola boshladi. Bu turkumdagi asosiy hodisalar Qur’onning “Yusuf” surasida keltirilgan voqealardan olingan bo‘lib, unda payg‘ambar Yussuf alayhissalomning hayoti, sabr-toqati, pokligi va go‘zalligi asosiy g‘oya sifatida yoritib boriladi.

Avvalo, bu dostonlarning diniy-ma’rifiy xarakteri ularni boshqa epic asarlardan ajratib turadi. “Yusuf va Zulayho” doston va qissalarida Allohga bo‘lgan imon, sabr, halollik va tavba kechirimlilik kabi fazilatlar yetakchi mavzu sifatida ilgari suriladi. “Yusuf va Zulayho” dastlab diniy manbalardan Tavrot, Injil, Qur’oni karim kabi kitoblarda uchraydi. Mazkur qissa Qur’oni Karimning 12-surasi hisoblanib, Makkiy suralardandir. 111 oyatdan iborat. Diniy manbalarda bu qissa haqida turli qarashlar mavjud. Yusuf surasining nozil bo‘lish sabablari haqida Alouddin Mansur shunday ma’lumot beradi: “Bu sura Hud surasidan keyin Muhammad alayhissalom hayotlarining eng qora kunlarida-yaqinlari Hadicha va Abu Tolibdan ajralgan, mushriklar tomonidan ozor-aziyatlar chekib qiynalib yurgan kezlarida nozil bo‘lgan”.

Ushbu qissaning Qur'onda kelishiga sabablardan biri: odamzodning boshiga kelgan har qanday og'ir kunda ham sabrli bo'lishi, Allohga shak keltirmaslik, barcha qiyinchiliklarda o'zini tuta bilishi va kechirimli bo'lishiga undovchi da'vatlardan iboratdir.

Ikkinchidan ushbu dostonida tasviriy vositalar keng qo'llanilgan. Yusufning go'zalligi, Zulayhoning Yusuf hajrida chekkan iztiroblari chuqur yoritilgan. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" dostonida go'zallik timsoli sifatida Yusuf obrazini keltiradi va bu orqali ma'naviy go'zallikni ulug'laydi. Abdurahmon Jomiy ovzining "Yusuf va Zulayho" (Ogahiy tarjimasi) dostonida Yusufning go'zalligini shunday tasvirlaydi:

"Yusuf jamolini sham'in shabiston aynida yondurmoq va bani odam ko'ngli parvonasin ul shula mushohidasida kuydurmoq".

Uchinchidan, "Yusuf va Zulayho" dostonlari axloqiy-ma'naviy tarbiyada ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Asar o'quvchiga sabrli bo'lish, pok saqlanish, nafsga qarshi kurash g'oyalarini singdiradi. Bu jihatdan asarlar didaktik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida qahramonlar har qanday qiyinchilikka duchor bo'lganda ham o'z orzularini amalga oshirishga aniq umid bog'laydilar. Ushbu dostonida tasviriy ifodalarni qo'llash emas, balki, to'g'ridan to'g'ri voqealar rivojiga o'tilganligi, asar Allohga hamd, hazrati payg'ambar sallollohu alayhi vasallam na'ti, doston ibtidosi Yusuf og'alarini yomon sog'ing'onlari kabi boblar bilan boshlanib ketganligi ko'rsatiladi.

Dostonning yana bir o'ziga xos jihati bu ularning ko'p tillarga tarjima qilinishi va turli xalqlar orasida mashxurlikka erishganidir. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi ijodkorlar bu syujet asosida o'z talqinlarini yaratganlar. Ularning har biri Yusuf qissasini o'z zamonasining madaniy va ma'naviy muhitiga mos holda ifodalagan.

Yusuf alayhissalomning badiiy adabiyotdagi o'rni doston va qissalar tarkibida yoritilgan. Bu mavzu arab va fors tillarida Firdavsiy, Ibn Sino, Kisosiy, Abdurahmon Jomiy, turkiy nazmda esa Qul Ali va Nosuriddin Rabg'uziy tomonidan qalamga olingan.

Nosuriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida payg'ambarlar hayoti va karomatlariga bag'ishlangan 72 qissa mavjud bo'lib, "Qissasi Yusuf" asar tarkibida o'n sakkizinchi o'rinda keladi. Rabg'uziy Qur'oni Karimda zikr qilingan "Biz senga eng yaxshi qissani bayon qilmoqchimiz" oyatiga asoslanib, "Yusuf qissasi" ni "Ahson ul-

qisas”, ya’ni “Qissalarning eng yaxshisi” deb atagan. Shuningdek, Tavrotning 1- kitobi “Ibtido”da ham, Qur’oni Karimda ham Ya’qub payg’ambar o’g’illarining 12 ta ekanligi zikr qilingan. Rabg’uziyning qissasida ham Yusuf timsoli go’zalligi, yuksak aql-idroki bilan boshqa birodarlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham u otasining suyaklari bilan hisoblangan va otasi uni hech qachon o’zidan uzoqlashtirmagan. Bu esa akalarining Yusufga bo’lgan adovatini paydo bo’lishiga sabab bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, “Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlar Sharq adabiyotining eng go’zal namunalari bo’lib, ular o’zining diniy-ma’rifiy, badiiy-estetik va axloqiy-tarbiyaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu asarlar bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan va insoniyat qalbida ezgulik urug’ini qadashda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Nosuriddin Rabg’uziy. Qisasi Rabg’uziy. 2-kitob.- Toshkent: Yozuvchi.1991
- 2.Abdurahmon Jomiy Yusuf va Zulayho.- Toshkent: G’ulom.-1997
- 3.Qur’oni Karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur).- Toshkent: Cho’lpon.1992
- 4.Durbek. Yusuf va Zulayho.-Toshkent. O’zbekiston fanlar akademiyasi.1959